
FALSAFA FANI IJTIMOIY ONG SIFATIDA

Davronov Ziyot Davronovich¹

¹ F.f.d., professor.

Salimov Baxriddin Lutfullaevich¹

¹ TDTr.U dotsenti.

Raxmatova Madina Egamberdi qizi.¹

MAQOLA MA'LUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.11.2024

Revised: 20.11.2024

Accepted: 21.11.2024

KALIT SO`ZLAR:

Ijtimoiy ong, xususiyat,
nazariya, tafakkur,
kategoriya va qonunlar.

ANNOTATSIYA:

Maqolada falsafaning boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqi, u olamni bir butun olib tekshishi, tabiatning umumiy xislatlarini o'rganadi, uning rivojlanish sabablarini, inson tafakkuri hamda jamiyatning umumiy qonunlarini bilishning yo'li va uslubini ko'rsatishi, olamni o'zgartirishga o'z hissasini qo'shishi tahlil etilgan.

KIRISH.

Falsafani ijtimoiy ong sifatida xususiyati nimada? Falsafa qanday muammolar ustida bahs yurgizgan va yurgizmoqda? U jamiyatda qanday rol o'ynaydi? U maxsus fan sifatida qanday takomillashib boradi? Bu masalalarni yechishda bir xil javob va bir xil tushunish yo'q. Ko'plab falsafiy nazariyalar, sistemalar, yo'naliш va maktablar mavjud. Falsafa muammolarini, uning xususiyatini, kelib chiqishini faqat olib borilgan tadqiqotlar nuqtai nazardan yondoshgandagina asoslab berish mumkin.

Falsafaning boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqi shundaki, u olamni bir butun olib tekshiradi. Tabiatning umumiy xislatlarini o'rganadi, uning rivojlanish sabablarini, inson tafakkuri hamda jamiyatning umumiy qonunlarini bilishning yo'li va uslubini ko'rsatadi, olamni o'zgartirishga o'z hissasini qo'shadi.

Falsafa tushuncha, kategoriya va qonunlarga asoslanib ish ko'radi. Bu jihatdan esa u konkret fanlarga yaqin turadi. Lekin konkret fanlar tushuncha va kategoriya hamda qonunlari, ma'lum bir tor doirada tabiat va jamiyat jarayonlarini tushuntirib bersa, falsafaning tushuncha, kategoriya va qonunlari esa tabiat, jamiyatdagi predmet va hodisalarining hammasiga taalluqli bo'lib, ularni barcha eng umumiy tomonlarini tushuntiradi.

Falsafaning qonun va kategoriyalari-olam, uning tabiat, yashash shakllari, rivojlanishi to'g'risida umumiy mulohazalar yurgizishga yordam beradi. Falsafaning o'ziga xos

xususiyati yana shundaki, u ijtimoiy ong shakli sifatida olam, dunyo to‘g‘risida to‘liq tasavvur berish, moddiy va g‘oyaviy jarayonlar, ularni o‘zaro munosabati, olamni bilish uni o‘zgartirish yo‘llari ustida fikr yurgizadi. Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, falsafa yagona fandir, dunyonи bilish uslubidir.

Biz ko‘rdikki, falsafa o‘ziga xos qator muammolar bilan shug‘ullanadi. Shu muammolar qatorida insonni borliqqa bo‘lgan munosabati hamdir.

Falsafa o‘tmishdagi, hozirgi, kelajakdagi hayot bilan bog‘liq. Ayniqsa, istaymizmi, yo‘qmi, siyosat, huquq, mafkura falsafiy tahlilga muhtoj. Bular haqida falsafa eng umumiy xulosalarni beradi. Mazkur yo‘nalishlar yuqorida ta’kidlaganimizdek ijtimoiy sohalar bo‘lib, falsafa nafaqat ular sohasida balki tabiiy sohalarni ham qamrab olgan. Demak, tabiatshunoslik fanlaridagi zamonaviy kashfiyotlar ham falsafiy tahlilga muhtoj. Zamon bilan falsafa hamnafas bo‘lishi zaruratdir. Mazkur jarayonlar inson mohiyatini ifodalaydi. Jumladan, insonning jamiyatda tutgan o‘rnini, hodisalarga bo‘lgan munosabatini, yangidan yetilib chiqqan muammolarini yechishga bo‘lgan qarashlarini o‘zi, shu mohiyatni tashkil qiladi. Har bir davr, xulosa qilib aytganda, inson, jamiyat, fan, falsafa oldida o‘zining talablarini qo‘yadi. Hozirgi davr falsafasining mohiyati ana shu muammolarga qaratilishi tabiiydir. Chunki, bularni hammasi inson dunyoqarashi bilan bog‘liqdir. Bu dunyoqarash ilmiy-falsafiy qarash yordamida shakllangan bo‘lsa hayot haqidagi tasavvurlar yanada oydinlashadi. Binobarin, falsafa xayrli urf-odatlar, an'analar, ma’naviy-meros, odob-ahloq, tartib va qoidalar doirasida fikr yuritib insonlar ongini boyitadi. Davr talabi asosida ularni tarbiyasiga e’tiborni qaratadi. Hozirgi davrda insoniy fazilatlar noyob bo‘layotir. Shuning uchun hozirgi falsafa milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e’tiborni qaratmoqda. Falsafa insoniy fazilatlarning ijobiy tomonlariga ko‘proq diqqatni tortadi. Sababi, insonlar o‘rtasida biologik jihatlarni o‘rtaga qo‘yuvchilar oz emas. Biologik jihatlar yirtqich hayvonlarda bo‘lgani singari insonlarda ham mavjud. O‘zini-o‘zi boshqalarga nisbatan hukmron qilib ko‘rsatish, bosqinchilik qilish, poraxo‘rlikka, qotillikka, o‘g‘rilikka, o‘z kashfiyotlari bilan tabiatga ta’sir etishga harakat qiluvchilar bor. Demak, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlash mehr-oqibatli insonlarni ko‘plab tarbiyalash falsafaning ham vazifasidir.

Hozirgi zamon falsafasi insonlarni iymonli va e’tiqodli bo‘lishini ta’minalashga o‘z hissasini qo‘sadi. Falsafa insoniyat sha’niga dog‘ tushirayotgan odam qiyofasidagi «mahluqlar»ga qarshi kurashda bardosh beradiganlarni tarbiyalaydi. Shu bilan birga insonni, insoniyatni, olamni bilishga chorlaydi. Yaxshi va yomonni izohlab ulardan xulosa chiqarishga majbur qiladi. Notiqlik, suhandonlik, mantiqiy fikrlash, ishontirish sirlarini o‘rgatadi. Falsafadan xabardor kishilar ko‘proq yarim yorti gapirish, mulohazasiz fikrlash o‘z fikrni boshqalarga singdirishda pala-partishlikka yo‘l qo‘ymaslik, maza-matrasisiz fikrlarni aytaverishlarni oldini oladilar.

Hozirgi zamon falsafasi o‘z mazmun va mohiyatini undagi barcha voqealari- hodisalarni to‘g‘ri aks etishiga ko‘maklashadi. Insonparvarlik xislatlarini ko‘payishiga yordam beradi.

Falsafa tinchlik, osoyishtalikka erishishning xavfini olishga undaydi. Rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlar faoliyatlarini falsafiy tahlil qiladi. Xalqlar o'rtasidagi moddiy va ma'naviy tafovutlardan to'g'ri xulosa chiqarishning nazariy jihatlarini o'rtaga tashlaydi. Oziq-ovqat, xom ashyo, energiya manbalari, ekologik jarayonlar orqasidan paydo bo'layoutgan muammolarni yechishga o'z xulosalarini beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyotining natijalarini oldindan bashorat qilish imkonini yaratadi. Zamonaviy axborot tizimini falsafiy tushunishga yordamlashadi. Mintaqaviy majorolarni asoslarini baholash kabi sohalarni ham mavzular orqali yoritadi. Hozirgi zamon o'zbek falsafasi ko'proq mustaqillik, istiqlol va istiqbol muammolarini o'rtaga qo'yadi hamda ularni falsafiy jihatlarini ochib beradi. Uning asosiy ahamiyati ham shundadir.

Qadimgi dunyoda Movarounnahr hududida zardushtiylik dinini aniqrog'i, yakka xudolik haqidagi fikrlarni kelib chiqishi yangi davr falsafiy qarashlarini shakllantira boshlagan. Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlar yodgorliklari», «Hotamnoma» va boshqa bir qancha ilmiy-adabiy manbalarda ko'rsatilgan hayratomuz voqealar, xalqlar haqida ma'lumotlar, insonlarning turmush tarzi jarayonlari qadimdan o'zbek falsafasi mavjudligidan dalolat beradi.

Gerodot, Strabon va boshqa qadimgi allomalar o'zbek xalqining ajdodlari haqida o'z vaqtida mukammal fikrlarni yozib qoldirganlarki, bu fikrlar turli sohadagi olimlarimiz tomonidan yanada chuqurroq o'rganilishni taqazo etadi.

O'zbeklar tarixida shu jarayon diqqatga sazovorki, boshqa hududlarda bo'lgani kabi davr o'tishi bilan fikrlar ham o'zgaraborgan. Oddiylikdan murakkablikka, bilmaslikdan bilishlikka qarab borgan. Masalan, zardushtiylik, mazdakchilik, moniychilik, sarbadorchilik, tasavvufchilik o'z-o'zidan paydo bo'lman. Xalq irodasi, uning falsafasi orqali paydo bo'lib rivojlangan. Keyinchalik jaddidchilik ta'limotlari paydo bo'ldi. XX asrning oxirida esa istiqlol falsafasi qad ko'tardi.

Shu sababli ham o'zbek falsafasini o'rtaga qo'yish va uni o'rganish davr taqazosidir. Hozirgi davr o'zbek falsafasini shakllanishida bir qancha faylasuflar borki, ular asarlarini jamlab, o'zbek falsafasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash va yo'nalishlarini aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi. XX asr o'rtalaridan boshlab faqat O'zbekistonda emas sobiq ittifoq respublikalari o'rtasida obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan bir qancha O'zbekiston faylasuflari yetishib chiqdiki, ularning ilmiy ishlari, yozgan asarlari o'z davrini aks ettirgan bo'lsada, ularni o'rganish foydadan holi bo'lmaydi.

References:

1. Зиёд Давронов (2022). БИОЭТИКАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ҲАҚИДА. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 82-84.
2. Давронов, З. Д. (1990). Возможность и действительность. Фан.

3. Бахридин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.
4. Бахридин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaeovich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
6. Salimov Baxriddin Lutfullaeovich. Бирдамлик ва ҳамжиҳатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.